


## O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2019-yil yanvar-avgust)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-avgust oylarida respublika korxonalari tomonidan 204,1 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2018-yilning mos davriga nisbatan mehnat unumdorligi 5,8 foizga, sanoatda band bo'lgan bir kishiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 113097,3 ming so'mni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 2,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 8,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 2,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 3,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



\* **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi, %



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash







Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 26,7 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 0,2 % ga, va shag'al – 61,3 % ga oshdi, shu bilan birga, ko'mir qazib olish 2,4 % ga, neft - 6,5 % ga, gaz kondensati - 3,1 % ga, chaqir tosh - 4,2 % ga pasaygan.

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan
Ko'mir, ming t.	2392,9	2336,0
Neft, ming t.	499,5	467,2
Tabiiy gaz, mln.kub.m.	40235,3	40333,1
Gaz kondensati, ming t.	1430,1	1386,4
Chaqiq tosh, ming t.	898,0	860,1
Shag'al, ming t.	262,9	424,2


## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati




O'sish sur'atining kamayishi

O'sish sur'atining ko'payishi


### Konchilik (yanvar-avgust)



Tabiiy gaz qazib olish,  
mlrd.kub.m



Ko'mir qazib  
olish, ming.t



Neft qazib olish  
(gaz kondensati bilan  
birga), ming.t

### Ishlab chiqaradigan sanoat.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163,3 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,0 % ini tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,5 % ni (2018-yil yanvar-avgust oylarida - 1,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 25,8 % (26,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 37,8 % (33,8 %) va quyi texnologiyali - 34,9 % (38,0 %) tashkil etdi.

## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %

O'rta-yuqori  
texnologiyali




2018 yil  
yanvar-avgust



O'rta-quyi  
texnologiyali



2019 yil  
yanvar-avgust





Yuqori texnologiyali




Quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 22,2 % (2018-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi - 23,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 22,4 % (6,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 15,9 % (4,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 15,7 % (7,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 9,9 % (3,1 %) ni tashkil etdi.


## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



Yengil avtomobillar



Yuk avtomobillari




Avtomobil dvigatellari



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Paxta tolasi



O'simlik yog'i (tozalangan)

■ O'sish sur'atining kamayishi

■ O'sish sur'atining ko'payishi

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan
Yengil avtomobillar, dona	115542	172748



Yuk avtomobillari, dona	2455	3450
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	955,9	950,6
Avtomobil dvigatellari, dona	85353	131007
Paxta tolasi, ming t	480,6	320,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	125,8	104,9

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 1,4 m., yengil avtomobillar - 1,5 m., avtomobil dvigatellari - 1,5 m., avtobuslar - 3,4 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,4 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,5 m. ga oshdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t	9891,5	12358,2
Portlandsement, ming t	5360,6	6349,0
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	7002	7029
Dizel yoqilg'isi, ming t.	730,1	701,2
Avtomobil benzini, ming t	764,1	679,5
Traktorlar, dona	2485	983

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati





Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib o'tgan yilning shu davriga nisbatan, azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 101,1 %), ammoniy sulfat (117,9 %), kaliy xlorid (109,3 %), ammoniy nitrat (116,3 %), karbamid (122,8 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (124,9 %), kaustik soda(137,9 %) ni tashkil etdi.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,7 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,2 % ga oshganligi kuzatildi.


### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



Ko'mirni er ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz

■ O'sish sur'atining kamayishi

■ O'sish sur'atining ko'payishi

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan
Elektroenergiya, mln.kVt/s	39849,2	40445,4
Issqlik energiyasi, ming Gkal	18461,9	17851,1
Ko'mirni er ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub m	218116,0	168426,0

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 1,7 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,6 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 2,0 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 26,2 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 34,7 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 78,4 % ga oshganligi kuzatildi.

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan
Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming t	215,5	151,6

Sanoati mahsulotlari	2018-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	2019-yil yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan
Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, t	2900,0	4996,0
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	106,2	143,1


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati**



Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo



Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


■ O'sish sur'atining kamayishi

■ O'sish sur'atining ko'payishi

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 69,1 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 16,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,9 % ni tashkil etdi.


### 2018 yilning mos davriga nisbatan 2019 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, %



○ iste'mol tovarlari    
 ○ oziq-ovqat tovarlari    
 ○ nooziq-ovqat tovarlari

2018 yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2019 yil yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 68,0% dan 68,4% gacha o'sishi qayd etildi.

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,7 % ni (2018-yil yanvar- avgust oylarida 7,5 %) tashkil etdi.

### Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-avgustga nisbatan o'sish, %
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup></b>	<b>69132,3</b>	<b>100,0</b>	<b>116,8</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	1421,7	2,1	107,4
<i>viloyatlar:</i>			
<b>Andijon</b>	16814,1	24,3	140,5
<b>Buxoro</b>	3169,7	4,6	108,7

<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda


	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-avgustga nisbatan o'sish, %
Jizzax	1389,3	2,0	104,7
Qashqadaryo	2277,2	3,3	106,3
Navoiy	2013,4	2,9	103,3
Namangan	3541,7	5,1	112,7
Samarqand	5724,9	8,3	102,2
Surxondaryo	951,9	1,4	105,1
Sirdaryo	1708,9	2,5	109,1
Toshkent	6230	9,0	105,5
Farg'ona	3969,6	5,7	108,2
Xorazm	3422,1	5,0	125,8
Toshkent sh.	15146,3	21,9	108,1

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 61,3 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 30,0 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 26,5 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining ulushi - 73,4 % ni tashkil etdi.

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-avgust, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-avgustga nisbatan FHI, %
O'zbekiston Respublikasi <sup>1)</sup>	204140,6	106,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8268,5	101,4


viloyatlar:

<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda


	2019 yil yanvar-avgust, mlrd. so'm	2018 yil yanvar- avgustga nisbatan FHI, %
Andijon	21343,0	119,8
Buxoro	9378,8	106,3
Jizzax	2997,5	103,9
Qashqadaryo	12461,0	94,3
Navoiy	27193,8	101,4
Namangan	5137,7	109,5
Samarqand	10092,9	110,0
Surxondaryo	2524,5	108,1
Sirdaryo	4433,6	101,8
Toshkent	34111,4	108,7
Farg'ona	12457,4	105,6
Xorazm	5313,8	111,5
Toshkent sh.	33900,5	106,6

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,7 %), Toshkent shahri (16,6 %), Navoiy (13,3 %), Andijon (10,5 %), Qashqadaryo (6,1 %) va Farg'ona (6,1 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019-yil yanvar-avgust oylarida 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %)




### O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 119,8 %), Xorazm (111,5 %), Toshkent (108,7 %), Namangan (109,5 %), Samarqand (110,0 %), Buxoro (106,3 %) va Farg'ona (105,6 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 140,5 %), Xorazm (125,8 %), Namangan (112,7 %), Sirdaryo (109,1 %), Buxoro (108,7 %), Farg'ona (108,2 %), Surxondaryo (105,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (107,4 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

### 2019-yil yanvar- avgust oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan %



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (27664,1 ming so'm), Toshkent shahrida (13430,2 ming so'm), Toshkent (11731,0 ming so'm) va Andijon (6934,5 ming so'm)

viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (6113,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 2070,5 ming so'm bo'lgani holda Toshkent shahrida - 6000,4 ming so'mni, Andijon viloyatida - 5463,0 ming so'mni, Toshkent viloyatida - 2142,5 ming so'mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>6113,9</b>	<b>2070,5</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4407,8	757,9
viloyatlar:		
Andijon	6934,5	5463,0
Buxoro	4934,4	1667,6
Jizzax	2205,8	1022,4
Qashqadaryo	3861,8	705,7
Navoiy	27664,1	2048,3
Namangan	1858,3	1281,1
Samarqand	2644,9	1500,2
Surxondaryo	977,7	368,6
Sirdaryo	5319,9	2050,6
Toshkent	11731,0	2142,5
Farg'ona	3369,4	1073,7
Xorazm	2886,2	1858,7

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
Toshkent sh.	13430,2	6000,4


Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Andijon viloyatida ishlab chiqarilganligini ta'kidlash lozim (respublika iste'mol tovarlarining 24,3%), Toshkent shahri (21,9%), Toshkent (9,0%) va Samarqand (8,3%) viloyatlariga to'g'ri keladi.

### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 68,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 33,7 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Namangan (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 73,3 %), Toshkent shahrida (67,1 %), Jizzax (64,0 %), Samarqand (54,3 %), Surxondaryo (51,0 %), Sirdaryo (47,6 %) va Farg'ona (41,9 %) viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy (12,5 %) va Qashqadaryo (20,9 %) viloyatlarida, Andijon (22,2 %) va Toshkent (26,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (23,3 %) kuzatildi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Respublikada 67,8 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,6 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,6 %) Toshkent shahriga, 7,4 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga va 7,1 mingtasi (10,5 %) Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

#### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 sentyabr holatiga)



2019-yil yanvar-avgust oylarida Respublikada 14668 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 51,6 foizi Toshkent shahri, Namangan, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2019-yil yanvar-avgust)



**Sanoat statistikasi  
boshqarmasi**

Tel.: (71) 230-80-46